



AWARDING PROCESSES IN THE UZBEKISTAN SSR DURING THE SOVIET PERIOD AND ITS SPECIFIC ASPECTS

Jasurbek Karimjonov

PhD, Senior Lecturer

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: expert0almazniy@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan SSR, order, medal, honorary title, honorary label, "Red Flag of Labor", World War II.

Received: 26.12.24

Accepted: 28.12.24

Published: 30.12.24

Abstract: This article examines awarding processes in the Uzbekistan SSR and its specific aspects, award signs, types of awards, awarded persons and legal grounds for awarding are analyzed.

SOVET DAVRIDA O‘ZBEKISTON SSRDA TAQDIRLASH JARAYONLARI VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Jasurbek Karimjonov

PhD, katta o‘qituvchi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: expert0almazniy@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, orden, medal, faxriy unvon, faxriy yorlig‘, “Mehnat Qizil bayroq”, Ikkinchi jahon urushi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston SSRda taqdirlash jarayonlari va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan bo‘lib, mukofot belgilari, mukofot turlari, taqdirlangan shaxslar hamda taqdirlashga doir huquqiy asoslar tahlil qilingan.

ПРОЦЕССЫ НАГРАЖДЕНИЯ В УЗБЕКИСТАН ССР В СОВЕТСКОЕ ВРЕМЯ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

Жасурбек Каримжонов

PhD, старший преподаватель

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: expert0almazniy@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекистан ССР, орден, медаль, почетное звание, почетный знак «Трудовое Красное Знамя», Великая Отечественная война.

Аннотация: В статье рассматриваются процессы награждения и его особенности в Узбекистан ССР, анализируются наградные знаки, виды наград, награжденные и правовые основания награждения.

Sovet Ittifoqi davrida fuqarolarni hamda tashkilotlarni davlatning yuksak mukofotlari bilan taqdirlash masalalarini alohida jarayon sifatida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston SSRda asosan, taqdirlash jarayonlarida Ittifoq orden va medallaridan hamda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining O'zbekiston SSR faxriy unvonlari va faxriy yorlig'idan keng foydalanilgan.

1926-yil 7-iyulda O'zbekiston SSR Markaziy ijroiya qo'mitasining maxsus qarori bilan O'zbekiston SSR "Mehnat Qizil bayroq" ordeni qabul qilindi. Qarorda, O'zbekiston SSR "Mehnat Qizil bayroq" orden belgisi nafaqat O'zbekiston SSR fuqarolari va jamoalariga, balki teng ravishda SSSR tarkibiga kiruvchi boshqa respublika fuqarolari va jamoalariga, shuningdek xorijiy davlatlar fuqarolari va jamoalariga tayinlanishi mumkinligi belgilangan edi[1].

Shu o'rinda aytish mumkinki keyinchalik ittifoqqa bo'ysunuvchi respublikalar faqat sovet ittifoqi orden va medallari bilan taqdirlangan, ular taqdirlashda o'z orden va medallariga ega bo'lmagan. O'zbekiston SSRda yashagan kishilar Lenin, Qizil Bayroq, 1 va 2 darajali Vatan urushi, Mehnat Qizil Bayroq, Qizil Yulduz, Hurmat belgisi, Qahramon ona, Onalik shuhrati ordenlari hamda O'roq va bolg'a, Jasurlik ko'rsatgani uchun, Jangovor xizmatlari uchun, Shavkatli mehnati uchun, Mehnatda o'rnak ko'rsatgani uchun, Onalik medali kabi medallar bilan mukofotlangan. Jumladan, o'zining uzoq yillik mehnati faoliyatidan kelib chiqib quyidagi tarzda mukofotlash ishlari amalga oshirilgan: 10-14 yillik mehnat – Mehnatda o'rnak ko'rsatgani uchun medali, 15-19 yillik mehnat – Shavkatli mehnati uchun medali, 20-24 yillik mehnat – Hurmat belgisi ordeni, 25-29 yillik mehnat – Mehnat Qizil Bayrog'i ordeni, undan oshiq mehnat – Lenin ordeni bilan taqdirlangan[2].

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistondan frontda xizmat olib borib, o'z jasorat va qat'iyatini ko'rsatgan shaxslar ko'plab turli darajadagi mukofotlar bilan taqdirlanganlar. Shu davr mobaynida mukofotlanganlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turli shaharlarni, hududlarni dushmandan himoya qilish, ozod qilishda yurtimizdan borib qatnashganlar ulushi salmoqli hisoblanadi. Moskva ostonasidagi jangda ko'rsatgan jasorati uchun "Moskva mudofasi uchun" medali bilan mukofotlanganlar orasida O'zbekistonlik jangchilardan 1753 kishi bor edi[3] (Moskva mudofaasi 1941-yil 30-sentyabrdan 1941-yil 5-dekabrgacha davom etdi). Muhim janglardan yana biri 1942-yil 17-iyuldan 1943-yil 3-fevralgacha ya'ni olti oy davom etgan Stalingrad uchun janglardir. Ushbu shaharni mudofaa qilishda ko'plab o'zbekistonliklar

qatnashib jasorat namunalarini ko'rsatishgan. Natijada 2733 kishi "Stalingrad mudofasi uchun" medali bilan taqdirlangan. Qrimdagi harbiy harakatlarda ham ko'plab yurtdoshlar ishtirok etib, 2974 nafar o'zbekistonlik jangchilar "Kavkaz mudofasi uchun" medali bilan, shuningdek, 1382 nafar o'zbekistonliklar "Leningrad mudofasi uchun" medali bilan mukofotlangan[4]. Dneprni kechib o'tishdagi jasorati uchun 100 ga yaqin kishi urush Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldilar[5]. O'zbekistonlik jangchilar Yevropa xalqlarini fashizmdan ozod etishda ham alohida o'rnak ko'rsatgan. Natijada, ko'plab o'zbekistonliklar Italiya, Angliya, Fransiya, Polsha, Vengriya kabi davlatlarning mukofotlariga, jumladan, qo'qonlik Hoshim Ismoilov, toshkentlik Tojiboy Ziyoyev Fransiyaning "Janna d'Ark" kresti bilan[6], Q.Sharipov "Qizil yulduz" ordeni hamda Polsha hukumatining "Partizanlik oltin kresti" ordeni, "Grund Volt-Berlin" medali, "Ofitserlik kresti", "Verbutto ordeni", "Varshavani ozod etish" medali mukofotlariga sazovor bo'lgan[7]. O'zbekistondan "Berlinni olgani uchun" medali bilan 1706 nafar kishi, "Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" medali bilan 109208 nafar harbiylar mukofotlandilar. Shuningdek, Toshkent shahridan 13 nafar harbiylar urush Qahramoni unvoniga, 1950 nafar sirdaryoliklar yuksak orden va medallarga, Jizzax viloyatidan uch jangchi E.Ivanin, E.Ismoilov va J.To'rayevlar urush Qahramoni unvoniga, Samarqand viloyatidan 2 ming kishi orden va medallarga, Navoiy viloyatidan 2 kishi urush Qahramoni, 1 kishi to'la darajadagi "Shuhrat" ordeniga, yuzlab kishilar orden va medallarga, qoraqalpog'istonliklardan 20 kishi urush Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldilar. Urush yillarida 18 mingdan ortiqroq qashqadaryolik harbiylar orden va medallar bilan mukofotlandilar. Sh.Umarov, Sh.Shoyimov, Q.Ahmedov, V.Belov, A.Zeyberlin, K.Kazakov va boshqalar urush Qahramoni degan unvonga sazovor bo'ldilar. Surxondaryo viloyatidan 3773 nafar jangchilar orden va medallar bilan mukofotlandilar. Buxorolik mard va jasur jangchilardan 5 ming kishi orden va medallar, 12 nafar esa urush Qahramoni unvoniga ega bo'ldi. 176 nafar ayollar bevosita urush ishtirokchisi bo'lishdi. Xorazmdan urush Qahramoni unvonini olishga sazovor bo'lganlardan S.Nurmatov, G.Solixov, P.Sizov va shovotlik R.Avazmurodov "Shuhrat" ordenining uchala darajasini olishga muvaffaq bo'ldi. Farg'ona viloyatidan janglardagi jasoratlari uchun 14 ming 912 nafar harbiy jangovor orden va medallar bilan mukofotlandilar. Andijon viloyatidan urush Qahramoni unvoniga sazovor bo'lganlar Q.Turdiyev (o'zbeklardan birinchi bo'lib shu unvonga sazovor bo'lgan edi) A.Yo'ldoshev, O.Shokirov, G'.Yoqubov, N.Xakimov va boshqalardir[8]. 1941–1945-yillarda Namangan viloyatidan frontga 79 mingdan ortiq kishi safarbar qilindi. 23 ming namanganliklar jangovor orden va medallar bilan mukofotlandi. Namangan viloyatidan S.Adashev, A.Raximov, N.Mingboyev, F.Yo'ldoshev, B.Ivanovskiy, M.Fayozov kabi jangchilar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldilar. G'.Valiyev, X.Jalolov, S.Abdurahmonovlar esa to'la darajali "Shuhrat" ordeni sohibi bo'lishdi[9].

So'ngi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida Ikkinchi jahon urushi yillarida turli orden hamda medallar bilan mukofotlangan O'zbekiston vakillarining soni bo'yicha ham aniqlik kiritildi. Shu paytga qadar bu ko'rsatkich 120 ming nafar deb qayd etilardi. Yangi ma'lumotlarga asosan 200 mingdan ziyod askar va ofitserlar jangovar davlat mukofotlari bilan taqdirlangani aniqlandi. Jumladan, ilgari 280 nafar deb hisoblab kelingan o'zbekistonlik Sovet Ittifoqi Qahramonlarining soni 301 ta ekani, 70 nafar yurtdoshlar uchala darajadagi Shuhrat ordeniga sazovor bo'lgani hujjatlar orqali o'z tasdig'ini topdi[10].

Ma'lumotlarga ko'ra, 1940-yil 16-fevralda chiqarilgan O'zbekiston SSR faxriy unvonlari to'g'risidagi qarorga muvofiq faxriy unvonlar berila boshlagan. Ungacha bo'lgan davr mobaynida respublika aholisi SSSR faxriy unvonlari bilan taqdirlangan. Bu davrda O'zbekiston SSR faxriy unvonlari bilan taqdirlash masalalari bilan O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi shug'ullangan.

1977-yil 27-oktyabrda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 558-sonli "O'zbekiston SSR faxriy unvonlari to'g'risida farmoni" va unga asosan, nizomi qabul qilindi. Ushbu nizom 5 bo'limdan iborat bo'lib, uni birinchi bo'limida O'zbekiston SSR faxriy unvonlari ro'yxati keltirilgan va ularning soni 32 tani tashkil etgan. O'zbekiston SSRning faxriy unvonlari xalq xo'jaligi, fan, san'at, madaniyat, xalq maorifi, sog'liqni saqlash ishlarini rivojlantirishda g'oyat katta xizmat ko'rsatgan hamda ijtimoiy hayotda faol qatnashgan kishilarga berilgan edi. San'atni rivojlantirishda ko'rsatgan katta xizmatlari uchun musiqa, xor, raqs va boshqa ijrochi jamoalarga O'zbekiston SSRning O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan ansambl, O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan ijrochi kollektiv hamda O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan orkestr faxriy unvonlari berilgan. O'zbekiston SSR faxriy unvonlari ikki xil toifaga ya'ni ham fuqarolarga ham ijodiy jamoalarga berilishini ko'rish mumkin. O'zbekiston SSR faxriy unvonlari bilan taqdirlashning umumiy jihatlaridan biri kamida 15 yil, O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan baliqchilik xodimi faxriy unvoni uchun 10 yil mehnat faoliyati yuritgan bo'lishi kerakligini, O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, ixtirochi, ratsionalizator, san'at arbobi, artist, yoshlar murabbiyi hamda O'zbekiston SSR xalq yozuvchisi, xalq artisti va xalq rassomi faxriy unvonlari uchun esa mehnat faoliyatining muddati belgilanmaganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston SSR faxriy unvonlarining ko'krakka taqiladigan nishonlar tasviri xususida mulohaza qilinadigan bo'lsa, ularning ko'p jihatlarini o'xshashligini ko'rish mumkin. Birinchidan, barcha faxriy unvonlar o'lcham jihatdan kattaligi bir xilda bo'lgan, ya'ni doira shaklida neyzilberdan yasalgan bo'lib diametri 30 mm. Ikkinchidan, unvon nomi o'zbek va rus tilida yozilgan. Uchinchidan, barcha unvonlarning orqa tomoni bir xilda tasvirlangan, ya'ni o'rtadan yuqoriroqda, quyosh nurlari ustida "O'zSSR" degan so'z yozilgan, pastda esa paxtasi ochilgan

g'oz' shoxlari tasviri tushirilgan bo'lib, uning ustida belgining raqami tasvirlangan. To'rtinchidan, ko'krakka taqiladigan bu belgi teshikcha va xalqacha orqali kolodkaga ulangan bo'lib, kolodkaning orasi O'zbekiston SSR Davlat bayrog'i rangida bo'lgan lenta bilan qoplangan. Beshinchidan, unvonlar ko'rinishidagi asosiy farqli tomoni bu uning old qismidagi sohalaridan kelib chiqib ifodalangan tasvirlardan iborat bo'lgan[11].

1983-yil 27-mayda 3332-X sonli O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining "O'zbekiston SSR davlat mukofotlari to'g'risidagi farmon" qabul qilindi. Ushbu nizom 8 bob va 37 moddadan iborat bo'lib, O'zbekiston SSR davlat mukofotlari O'zbekiston SSR faxriy unvoni va O'zbekiston SSR Oliy Sovet Prezidiumi faxriy yorlig'idan iborat deb belgilab qo'yildi. O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga ko'ra, O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi O'zbekiston SSR faxriy unvonlarini ta'sis etgan, taqdirlagan hamda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining faxriy yorlig'i bilan mukofotlagan. O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining faxriy yorlig'i bilan fuqarolar, shuningdek, korxonalar, birlashmalar, sovet xo'jaliklari, jamoa xo'jaliklari, muassasalar, tashkilotlar, ijodiy jamoalar, harbiy qismlar, viloyatlar, tumanlar, posyolka, qishloq va ovular mukofotlangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat mukofotlari bilan boshqa ittifoqdosh respublika fuqarolari, O'zbekiston SSRda doimiy istiqomat qiluvchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, iqtisodiyot va madaniyatni rivojlanishiga hissa qo'shganlar ham taqdirlangan. O'zbekiston SSR faxriy unvonlari bilan fuqarolar xalq xo'jaligini rivojlantirishdagi xizmati, fan, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyat, san'at, mamlakat mudofaasini mustahkamlash va mehnat faoliyatining boshqa sohalarida yuqori darajada professionaligi uchun taqdirlanganlar. Shu o'rinda aytish kerakki, O'zbekiston SSR xalq artisti faxriy unvoni qoida bo'yicha O'zbekiston SSR xizmat ko'rsatgan artist yoki O'zbekiston SSR san'at arbobi faxriy unvonlari berilganidan 5 yil o'tgach taqdirlanishi belgilab qo'yilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Куценко А.Н., Смирнов Ю.Д. Ордена Советских республик. – Донецк: Лебедь, 1996. – С. 278.
2. Абдуллаев Д. Ўзбекистонда мукофотлаш тизимининг шаклланиши ва ривожланиш босқичлари / Монография. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 190.
3. Азимов Ҳ.И. Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистон ҳарбийлари иштироки ва мавқеи (1941–1945 йиллар). Тарих фан. ном. дисс... – Тошкент, 2004. – Б. 71.
4. Азимов Ҳ.И. Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистон ҳарбийлари иштироки ва мавқеи (1941–1945 йиллар). Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 82-84.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент, 2000. – Б. 473.

6. Усмонов Қ, Содиқов М. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент, 2002. – Б. 178.
7. Шарқ Юлдузи // 1985, № 3. – Б. 103-107.
8. Азимов Ҳ.И. Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистон ҳарбийлари иштироки ва мавқеи (1941–1945 йиллар). Тарих фан. ном. дисс... – Тошкент, 2004. – Б. 99.
9. Хайдаров З.У. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий тарихи: қиёсий таҳлил. Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 58-59.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning buyuk G‘alabaning 75 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi <https://president.uz/oz/lists/view/3564>.
11. Ўзбекистон ССР Олий Советининг Вedomостлари, 1977. 30-сон. – Б. 771-793.
12. Makhmutaliyevich, K. M., Qudratovich, A. O., Mukhtorjonovich, K. J., Makhmutaliyevich, K. I., & Abdullayevich, Y. A. (2020). October revolution and its influence in Socio-political life of Turkestan at the beginning of the 20th century. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 115-120.
13. Mukhtorjonovich, K. J. (2021). Creation of the legal basis of state awards in independent Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 2031-2037.
14. Muxtorjonovich, K. J. (2021). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ORDENLARINING TAVSIFI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 536-543.